

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IFODALI O'QISH KO'NIKMASINI HOSIL QILISH

*Toshkent shahar Yashnobod tumani
204-o'rtta ta'lim maktabining Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi
Sattarova Iroda Akramovna*

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning muammo va yechimlari, ta'lim sifatini oshirishdagi omillar xususida so'z boradi. Muallif til o'qituvchisining kompetentlik jihatlari, tilning lingvokulturologik xususiyatlari borasida o'z mulohazalarini bildiradi. Xalqaro hamda milliy tajriba bilan bog'liq qarashlarni tahlilga tortadi

Kalit so'zlar: metod, milliy tajriba, xalqaro ta'lim standarti, innovatsion metod.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim va murakkab bo'g'ini hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda ifodali o'qishga o'rgatish sinflar bo'yicha o'qish mazmunini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish va mashg'ulotlarni olib borish kerak. Bola maktabga kelganida avval o'qish, yozishni o'rganadi. Asta-sekin Unga mustaqil kitob tanlay boshlaydi, o'qigan kitobini to'g'ri baholay olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar so'zlarni to'g'ri bo'g'inlarga ajrata olishi kerak, buning uchun o'qituvchi har bir o'quvchi bilan ishlash o'quvchilar bilan to'g'ri muomalada bo'lishi zarur. Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning ma'lum metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarida o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havas uyg'otadi. Ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida bolalarning adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. O'quvchilar nutqining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash va to'g'ri talaffuz etish bolalar nutqining ravan, ifodali bo'lishiga yordam beradi. Ifodali o'qishda:

- a) nafasdan to'g'ri foydalana olish;
- b) adabiy til talaffuz normalarini yaxshi bilish;
- c) so'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, aniq talaffuz etish;

Boshlang'ich o'quvchilarini ifodali o'qitishda asosan shu 3 qoidaga amal qilishi kerak. Boshlang'ich sinflarda ifodali o'qishga o'rgatish har bir o'quvchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olish, bo'g'inlarni to'g'ri ajrata olishi va normal tezlikda o'qishi orqali bola gapdagi asosiy, mazmunini anglaydi. Bolaning o'qish tezligini normallashtirishda 2ta narsaga e'tibor berishi kerak.

1. Normal tezlikda o'qish namunasini ko'rsatish;
2. Ichidagi o'qish yuzaki bo'lmasligi uchun topshiriqlar berish yo'li bilan tekshirish;

Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Mamlakatimiz yoshlarini jahonning taraqqiy etgan davlat yoshlari bilan har jabhada bellasha oladigan kerak bo'lsa ulardan o'z ustunligi bilan ajralib turishini ta'minlashning yagona yo'li ta'lim va tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratishdan iboratdir. Boshlang'ich ta'lim mazmunining ana shunday asosiy maqsadlari sirasiga o'quvchilarni mustaqil o'qitishga o'rgatish, ifodaviylikni kuchaytirish, dunyoqarashini shakllantirish, mustaqil va ifodaviy ishlash kabilarni kiritish mumkin. O'quvchilarda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qib o'rganayotgan fan asoslarini mukammal egallashlari uchun ularni, birinchi navbatda, mustaqil fikrlash, mushohada yuritish ko'nikma va malakalari bilan qurollantirishimiz lozim" – deydi. Boshlang'ich sinf bosqichida o'quvchilarni mustaqil va ifodali o'qishga o'rgatishda sinfdan tashqari o'qish darslari muhim ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ifodali o'qitish, ko'nikma hosil qilish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov 1997-yilda bo'lib o'tgan tarixiy 3- sessiyada "Ta'lim to'g'risida"gi qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqida fikr yuritarkan "Bilim olish o'z yo'liga, lekin o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish har bir pedagogning eng muhim va birinchi darajadagi vazifasi bo'lishi lozim" deb ta'kidlaydi. Ifodalilik ko'rgazmalilik demakdir. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O'qituvchi ifodali o'qish orqali asar mazmunini va emotsionalligini o'quvchilarga ko'rgazmali ravishda yetkazadi. O'qish darslari o'quvchilar fikrini va nutqini o'stirish, hamda o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlar bilan boshqa o'quv predmetlari orasida alohida o'rin tutadi. O'qish darslari jarayonida o'quvchilarning o'qish malakalari takomillashib, to'g'ri, ongli, va ifodali o'qish badiiy asar g'oyasini tushunish qobiliyatlari o'sib boradi. 2-sinfda ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 1-qism 1-bo'limida "Katta bo'lsam, Nobel mukofotini olaman!" mavzusida keltirilgan quyidagi hikoyasi "Nobel olaman!", ya'ni bu hikoya o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, tabiatni asrashga, o'quvchilarni o'z oldiga qo'ygan maqsadiga intilishiga yordam beradi. Ismim – Muhammad, familiyam – Haydarov. Ikkinchi sinfda o'qiyman. Men tabiatdagi g'aroyib narsalarga qiziqaman. Shuning uchun ham eng sevimli fanim – tabiiy fanlar. Tabiatda sirli narsalar ko'p. Oddiygina yomg'ir yoki shamolning qanday paydo bo'lishi haqida o'qisam, hayratlanib ketaman. Ayniqsa, osmondagi yulduzlar, sayyoralar haqida ko'proq bilgim keladi. Katta bo'lsam, astronom bo'laman. NASA, SpaceX kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlayman. Ularga koinotni o'rganishda yordam beraman. O'zim ham fazoviy kemalar yasayman. Ularda fazogirlar Oy va Marsga uchishadi. Yaxshi astronom bo'lish uchun hamma fandan a'lo baholarga o'qish kerak. Fizika, matematika va kimyoni chuqurroq o'rganish kerak. Chunki boshqa galaktikalarga uchsak, bu bilimlar kerak bo'ladi. Kelajakda Nobel mukofotini olmoqchiman. O'zbek olimlari haligacha bu

mukofotni olmagan. Men Nobel mukofotini olgan birinchi o'zbekistonlik bo'lishim mumkin. Buning uchun esa hamma odamlarga foyda keltiradigan katta ish qilish kerak. Bu oson emasligini bilaman. Lekin men albatta harakat qilib ko'raman. 2-sinfda o'quvchilarda so'zni butunicha o'qish malakalari shakllanadi va to'g'ri, ifodali o'qishga intilish yaqqol seziladi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay mustaqil o'qishga harakat qiladi. O'qituvchi yordamida o'qitilgan matnlarni tez ang'laydi, undagi ba'zi bir voqea-hodisalarni so'z orqali ifodalashga urinadilar. O'qish va gapirish jarayonida o'quvchilarning adabiy til normalariga rioya qilish talab qilinadi. O'quvchilar turli xildagi aniq topshiriqlar asosida bir necha marta o'qitiladi va o'qish ma'sulyati orttiriladi. O'qish darslarida darsning asosiy qismini o'quvchilarning o'qishiga ajratish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 2008-yil 84-bet
2. Oripov.B.T "Darslarning samaradorligini oshirish yo'llari" Toshkent 1983-yil
3. Rahmonova.Ye.R. Razzoqov.D.N "Pedagogik texnologiyalar" fanidan o'quv qo'llanmaT.:2007yil
4. 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism darslik, Toshkent.2021
5. www.ziyonet.uz
6. www.kitobxon.com